<b>Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li</b>	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
<b>Badalov Jamshid Jamolovich</b>	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
<b>Shirinov Sabir Erkinovich</b>	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
<b>Anvar Eshmatov</b>	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
<b>Ametova Nasiba Danilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
<b>Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna</b>	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
<b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
<b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
<b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
<b>Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li</b>	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
<b>Икромовна Ханифа Одилловна</b>	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
<b>Kamalova Jamila</b>	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari .....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati .....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili .....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish .....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari .....	1232
<b>Raxmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari .....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari .....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati .....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi .....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida) .....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами .....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



# BUDJET MABLAG'LARINI TAQSIMLANISHI VA MAQSADLI SARFLANISHIDA INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH VA JAMOATCHILIK NAZORATINING SAMARADORLIGI



**G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

**Annotatsiya:** Budget mablag'larining samarali sarflanishi ustidan moliyaviy va jamoatchilik nazorati, Moliyaning nazorat, taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi, fuqarolarning budget mablag'lari ishlatilishidagi ishtirokini oshirish to'g'risida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** jamoatchilik nazorati, qo'shimcha manbalar, "Ochiq budget", moliyaning nazorat funksiyasi, taqsimlash funksiyasi.

**Abstract:** Financial and public control over the effective use of budget funds, control, distribution and redistribution function of finance, and increasing participation of citizens in the use of budget funds.

**Key words:** public control, additional sources, "Open budget", control function of finance, distribution function.

**Аннотация:** Финансовый и общественный контроль за эффективным использованием бюджетных средств, контрольная, распределительная и перераспределительная функция финансов, повышение участия граждан в использовании бюджетных средств.

**Ключевые слова:** общественный контроль, дополнительные источники, "Открытый бюджет", контрольная функция финансов, распределительная функция.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022-yildagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Biz O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta'minlashni ustuvor vazifa etib belgiladik. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo'lishi barchamizga ayon" deya ta'kidladilar <sup>[1]</sup>.

Bugungi kunda budget mablag'larining samarali sarflanishi nafaqat davlatni, balki fuqarolarning ham budget mablag'lari ishlatilishidagi ishtirokini oshirishga va dolzarb masalalarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Mahalliy budgetlarning qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi qaror (farmoyish) loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun uni 10 kun muddatga "E-qaror" elektron tizimiga joylashtirish amaliyotining yo'lga qo'yilishi tuman va shahar budjeti qo'shimcha manbalaridan foydalanishda jamoatchilik nazoratini o'rnatib, mablag'larning maqsadli sarflanishiga va eng avvalo dolzarb masalalar uchun yo'naltirishiga imkon yaratdi.

Dastlab, tajriba tariqasida 2021-yilning may oyidan boshlab 14 ta tuman (shahar) budgetini shakllantirishda xarajatlarning 5 foizini bevosita aholining fikrini inobatga olib, mahallalardagi muammolarni hal etishga yo'naltirish tizimi joriy etilgan bo'lsa <sup>[2]</sup>, 2022-yilda barcha tuman va shahar budgetida ushbu maqsaddagi mablag'lar ko'zda tutildi.

Ushbu jarayonlarning ochiq va shaffofligini ta'minlash maqsadida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlar bajarilishi yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent






shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining hisobotlarini Oliy Majlis Senatida har chorak yakunida eshitib borish, tashabbusli budjet jarayoni ijrosi yuzasidan hisobotlarni majburiy tartibda tuman va shahar hokimliklari saytida e'lon qilish tartibi joriy etildi [9].

Jamoatchilik nazorati doirasida 2021-yilgi "Tashabbusli budjet" jarayonida Respublika bo'yicha jami 41 ming 125 ta takliflar kelib tushgan bo'lib shundan 1 599 ta loyiha eng ko'p ovoz to'plab g'olib deb topilgan. Ushbu loyihalarni moliyalashtirish uchun 530 mlrd 500 mln so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgan.

2022-yilning 1 va 2 mavsumlarida 131 265 ta takliflar kelib tushgan bo'lib, shundan 3 365 ta loyihalar eng ko'p ovoz to'plab g'olib deb topilgan.



1-jadval: Tashabbusli budjet jarayoni 2023-yil 1-mavsum [10]

Joriy yil birinchi mavsum doirasida "Ochiq budjet" axborot portalida ovoz berish va tanlash natijasiga ko'ra qiymati 1,5 trln so'm bo'lgan 1 666 ta loyiha g'olib deb topildi.


Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi PQ-117-sonli qaroriga asosan tashabbusli budjetda faol ishtirok etgan fuqarolarni yanada rag'batlantirish va ko'p ovoz to'plagan loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2 mingdan ortiq ovoz to'plagan, ammo g'olib deb topilmagan 1309 ta loyihaga respublika budjetidan qo'shimcha ravishda 1,3 trln so'm mablag' ajratilishi belgilandi.

Bu esa qo'shimcha ravishda 1 182 ta mahalla bo'yicha 4,3 mln nafar fuqaro ovoz bergan loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini berdi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2023 yil 1-chorak yakunlari bo'yicha fuqarolarning budjet jarayoniga jalb etilishi hamda tashabbusli budjetlashtirish tadbirlari amalga oshirilishi samaradorligi yuzasidan hududlar reytingi shakllantirildi. Baholash natijalariga ko'ra, 60 ta tuman va shahar 71 dan 100 gacha ball to'plab – "yashil hudud", 94 ta tuman va shahar 55 dan 71 gacha ball to'plab – "sariq hudud", 54 ta tuman va shahar 55 dan past ball to'plagan holda – "qizil hudud" deb topildi.

Tashabbusli budjetlashtirish doirasida joriy yilning 7 may kuni yana bir muhim jarayon – "Ochiq budjet" axborot portalini orqali tuman (shahar) budjetlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'larning kamida 50 foizini jamoatchilik fikri asosida yo'naltirish maqsadida "Mening yo'lim" loyihasi yakunlandi.

Ovoz berish jarayonida Respublika bo'yicha 5 159 ta mahalladan jami 10 ming 317 ta takliflar ilgari surilib, 8 mln 100 ming nafarga yaqin fuqarolar ishtirok etdi va ular tomonidan ilgari surilgan va eng ko'p ovoz to'plagan 473 ta mahallalardagi 519 ta loyiha g'olib deb topildi. 519 ta loyihalar uchun 3 mln 677 mingdan ko'proq ovoz berildi.


2-jadval: Mening yo'lim 2023-yil 1-mavsum ma'lumotlari <sup>[10]</sup>

Hududlar kesimida eng ko'p g'olib loyihalar Toshkent viloyati (55 ta), Qoraqalpog'iston Respublikasi (54 ta), Samarqand (40 ta) va Andijon (40 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

G'olib bo'lgan loyihalarni moliyalashtirish uchun respublika bo'yicha 412,4mlrd so'm mablag' yo'naltirildi.

Ikkinchi mavsumda esa "Ochiq budget" portali orqali eng ko'p ovoz berilgan va g'olib deb topilgan loyihalar soni 1 193 tani tashkil etdi, ushbu loyihalarni moliyalashtirish uchun 1 trln 424 mln so'm mablag' ajratilishi belgilandi.

Ovoz berish jarayonida Respublika bo'yicha 9 435 ta mahalladan jami ilgari surilgan 49 ming 464 ta takliflardar saralash jarayonida 33 ming 489 ta loyiha tasdiqlandi ushbu loyihalarga jami 18 mln 115 mingdan ortiq ovozlar berildi, eng ko'p ovoz to'plagan bir mingdan ortiq mahallalardagi (shundan 293 ta mahalla ilk bor g'olib deb topildi) 1 193 ta loyiha g'olib deb topildi, ushbu loyihalar uchun 6 mln 304 mingdan ko'proq ovoz berildi <sup>[4]</sup>.

3-jadval: Tashabbusli budget jarayoni 2023-yil 2-mavsum <sup>[10]</sup>



Xulosa qilib aytganda, davlat budjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadidagi tashabbusli budjetlashtirish jarayoni hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda uchrayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilganligi bilan juda ahamiyatlidir.

Shuningdek, jamoatchilik fikri asosida budjetlashtirish mexanizmlarini amalga oshirishning eng muhim natijasi nafaqat infratuzilmani rivojlantirish masalalarini hal qilish, shu bilan birga aholi punktlarida ijtimoiy va inson kapitalini, va ajratilayotgan mablag'lar ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirishdir.

Budjet jarayonida bevosita ishtirok etish orqali fuqarolar budjet mablag'lari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatib, ijtimoiy o'zgarishlarning ishtirokchilariga aylanishadi. Birgalikda ishlash, turli xil loyihalarni muhokama qilish orqali muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar, bahsli masalalarga umumiy yechim izlashni o'rgatadilar.

Hukumat, biznes va aholining hamkorlikdagi faoliyati kuchayadi, aholi va biznes tomonidan birgalikda moliyalashtirishni nazarda tutadigan umumiy ishtirok va javobgarlik shakllanadi. Loyihani amalga oshirish uchun hattoki minimal budjet mablag'ining kiritilishi jamoatchilik ishlarida mas'uliyat bilan yondashuvni nazarda tutadi, loyihani amalga oshirish jarayonida fuqarolarning faolligini oshiradi.

Jamiyatda, ya'ni aholi o'rtasida turli ijtimoiy guruhlarining mavjudligi. Insoniyat rivojlanishi, ya'ni demografik holati aholining ijtimoiy guruhlariga bo'linishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jamiyatda ko'p farzandli oilalar, nafaqaxo'rlarning mavjudligi obyektiv omildir. Bunday guruhlarini ijtimoiy tomondan himoya qilish davlatning burchi hisoblanadi. Buni amalga oshirishda davlat eng avvalo budjet mablag'laridan foydalanadi. Jamiyatda yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni moliya yordamida qayta taqsimlanishi natijasida umumdavlat fondlari, ya'ni budjetlar hamda budjetdan tashqari fondlar shakllantiriladi. Bunday qayta taqsimlash natijasida nomoddiy sohada band bo'lgan shaxslar moliya mablag'lari bilan ta'minlanadi. Jamiyatda yaratilgan milliy daromadni qayta taqsimlash natijasida iqtisodiyot tarmoqlari tarkibining manfaatlari hisobga olinadi. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini jadal rivojlantirishga e'tibor qaratiladi <sup>[5]</sup>. Ushbu holatni O'zbekiston Respublikasiga taqqoslasak, hozirda mamlakatimizda 60 foiz aholi qishloq joylarida istiqomat qilishi va eksport tarkibida qishloq xo'jalik mahsulotlari asosiy ulushni egallashi sababli qishloq xo'jalik sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Yuqoridagi fikrlarimizni umumlashtirib, moliyaning taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi quyidagilarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi deb xulosa qilishimiz mumkin:

- xo'jalik subyektlari va davlat miqyosida pul fondlari tashkil etiladi;
- faqat maqsadli pul fondlari tashkil etiladi;
- iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar o'rtasida moliya mablag'larining qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi;
- mamlakat aholisining turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida moliya mablag'lari qayta taqsimlanadi;
- xo'jalik subyektlari va davlat miqyosida zarur zaxira fondlari tashkil etiladi <sup>[6]</sup>.

Budjet xarajatlarini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish. Davlat budjeti bilan bog'langan har qanday islohotlar tizimi puxta, keng o'ylangan va aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda bo'lishi kerak. Mazkur davlat budjeti islohotlarining markaziy o'rnida budjet loyihasini rejalashtirish eng asosiy, kerak bo'lsa, butun mamlakat taqdirini hal qiluvchi (ayniqsa, o'tish davriga xos mamlakatlar uchun) kuch sifatida qarash maqsadga muvofiq bo'ladi. Budjetni rejalashtirishning asosiy obyektiga yo'naltirishning eng muhim bu unga sarflanayotgan xarajat hisoblanadi. Shu boisdan, amalga oshirilayotgan xarajatlarni ma'lum majburiyatlarini mustahkamlash (yoki yuklatish) evaziga ham tayanish mumkin.

Budjet xarajatlarining bugungi kunda miqdor ko'rsatkichlari e'tibor markazida asosiy o'rin olib kelmoqda, ammo sifat jihatdan esa biroz oqsoqlanishlar mavjud. Budjet xarajatlarining sifat jihatlari makroiqtisodiy miqyosda sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga sabab bo'ladigan jihat hisoblanadi. Jahon amaliyotida budjet xarajatlarining sifat jihatiga "xarajatlarga oid majburiyatlar" atamasi bilan talqin etilmoqda <sup>[7]</sup>.

Aynan, xarajatlarga oid majburiyatlar budjet xarajatlarining sifat jihatiga aylanishi, bunda amalga oshirilayotgan har bir xarajatlar ma'lum bir majburiyatlar asosida (aniq maqsad va kutilayotgan natija) amalga oshiriladi. Mazkur holat budjet xarajatlari uchun huquqiy mexanizm vazifasini bajaradi. Budjet mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi qarorlarni xarajatlarga oid majburiyatlarni qabul qilish yo'li bilan rasmiylashtirish olib borilayotgan budjet siyosatining barqarorligi va izchilligini ta'minlaydi. Xarajatlarga oid majburiyatlarni qabul qilish davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga birlashtirilgan vakolatlar va funksiyalarga muvofiq amalga oshiriladi. Albatta, har bir islohot bir moliya yilida o'z natijasini ko'rsatishi mushkul, ayniqsa, budjet xizmati sohasida. Shu bois, xarajadni taqsimlashdan budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilar uchun majburiyatlarni yuklash ham ulardan natija kutish bir moliya yili doirasidan o'rta muddatga (qoida tariqasida 3-5 yil) mo'ljallangan budjet amaliyotiga o'tish sari yetaklaydi. Budjet mablag'laridan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklovchi bir qator kamchiliklar mavjud, ular:



1. Joriy smetali rejalashtirish budjetdan moliyalashtirilgan xizmat (ish, tovar)larning natijalarini aniqlash imkoniyati juda ham murakkab kechmoqda. Joriy tizimda amalda sarflangan xarajatlarning o'zi va tejalgan mablag'gina natijalar sifatida qabul qilinmoqda. Mazkur yondashuv budjetdan moliyalashtirishning samaradorligini aniqlash imkoniyatini bermaydi. U faqat mablag'lar maqsadli sarflanishini ta'minlash, moliyalashtirishning rejalashtirilgan va amaldagi summasini taqqoslash imkoniyatini beradi xolos.
2. Joriy budjetni rejalashtirish bir yil bilan chegaralanib, amalda budjet siyosatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yil doirasidan chetga chiquvchi ustuvor vazifalari va maqsadlariga erishishga yo'naltirish imkoniyatini cheklab qo'ymoqda. Natijada o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan milliy va hududiy dasturlar aksariyat hollarda budjet imkoniyatlari bilan bog'lanmay qolmoqda. Bu esa, ularni bajarish muddatlarini qayta ko'rilishiga va dastur tadbirlariga o'zgartirishlar kiritilishiga olib kelmoqda.
3. Amaldagi budjet uzoq muddatli investitsiya dasturlari (kapital qo'yilmalar) bilan uzviy darajada bog'lanish imkoniyatining chegaralanib qolganligi. Investitsiya dasturi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar (yangi quvvatlarni yaratish, amaldagi obyektlarni asbob-uskunalar bilan jihozlash) ishga tushirilganidan so'ng ularni joriy ta'minlashga xarajatlar talab qiladi. Ammo, yangi obyektlarning ishga tushirilishi budjet prognozi bilan bog'lanmagan, ya'ni unda mazkur obyektlarni joriy ta'mirlash xarajatlar hisobga olinmagan hollar uchramoqda. Natijada moliya yili mobaynida mazkur obyektlarni moliyaviy ta'minlashga qo'shimcha mablag'larni topish (shu jumladan rejaga muvofiq ajratilgan mablag'larni qayta taqsimlash yo'li bilan) to'g'risida qarorlar qabul qilinadi. Davlat xarajatlari va qabul qilinayotgan (amalga oshirilayotgan) dasturlarning o'zaro nomuvofiqligi muammolari budjetni rejalashtirish asosan joriy vazifalarni xal qilishga qaratilganligini ko'rsatadi. Bunda qisqa, o'rta va uzoq muddatli davrlarda rejalashtirilgan budjet xarajatlari bilan erishilishi lozim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar to'la hisobga olinmaydi.
4. Qonunchilikda mavjud kamchiliklar, budjet va turli dasturlar o'rtasidagi aloqani belgilovchi huquqiy normalar va mexanizmlar mukammal emasligi, shuningdek, budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorlik darajasiga baho berishda ma'lum metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilmaganligi sababli ko'p hollarda samaradorlik va budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish prinsipi bilan o'zaro almashtirish yuz bermoqda.
5. Davlat budjeti samaradorligining turli makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga (bandlik, inflyatsiya, foiz stavkasi, narxlar darajasi va boshqalar) qarab uning iqtisodiyot va ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatidagi roli haqida gapirish o'rinli. Makrodarajadagi ko'rsatkichlarning turli tavsifga ega ekanligi ham budjet xarajatlarning samaradorlik darajasini o'lchashda muayyan noaniqlik yuzaga kelishini anglatadi. Buning ustiga umumiy makroko'rsatkichlar asosan informativ va tahliliy xususiyat kasb etadi, ularni muayyan shaxslarning harakatlari, kimningdir shaxsiy javobgarligi bilan bog'lash mumkin emas, ma'lum bir davlat muassasasi faoliyati bilan bog'lash ham mushkul hisoblanadi. Ayni vaqtda davlat budjeti davlat mablag'laridan aniq va maqsadli foydalanish uchun asosiy moliyaviy reja sifatida xizmat qiladi. Mazkur rejani amalga oshirishda budjet xarajatlarning samaradorlik darajasini aniqlash zaruriyati yuzaga chiqadi va quyidagi holatlarga duch kelishi muqarrar bo'lib qoladi: davlat mablag'lari pirovard natijada nimaga sarflangan, bu xarajatlar qanday natija bermoqda, pirovard natijalar va amalga oshirilgan xarajatlarning o'zaro nisbati qanday kechmoqda? Bu yerda asosiy urg'u budjet mablag'larini sarflash uchun shaxsiy va institutsional javobgarlik muammolarini yechish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgacha mavjud bo'lgan, o'tgan moliya yil uchun budjetning xarajatlar moddalariga doir hisobot ma'lumotlariga asoslanadigan budjet xarajatlari "smetali rejalashtirish" usuli moliyalashtirish natijalarini aniqlash muammosini amalda chetlab o'tadi <sup>[8]</sup>.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xarajatlarning o'zi natija sifatida amal qiladi va bunday sharoitda budjet xarajatlari moliyalashtirishning samaradorligini aniqlash imkoni cheklanadi. Budjet xarajatlari rejalashtirishning smetali tartibi mablag'lar maqsadli sarflanishini ta'minlash va moliyalashtirishning rejada belgilangan va amaldagi summalarini taqqoslash imkoniyatini beradi. Bu faktlar rejalashtirish va moliyalashtirishning hozirgi tizimi doirasida, albatta, foydali, lekin budjet xarajatlarning samaradorlik darajasini aniqlash imkoniyatini amalda hal qilib bermaydi. Bunday yondashuvda hisobot smetasi o'z-o'zidan rejali smetani vujudga keltiradi va bunday o'rin almashish cheksiz davom etishi mumkin. Shunday qilib, yillik budjet doirasida budjet xarajatlarning samaradorlik darajasini aniqlash amalda mumkin emas, chunki muhim iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning ko'p qismi barchasi uzoqroq muddatda amalga oshiriladi.





Moliyaning nazorat funksiyasi jamiyatda yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni tegishli fondlar bo'yicha taqsimlanishi hamda maqsadli fond mablag'larining sarflanishini nazorat qilish bilan bog'liqdir. Nazorat funksiyasi moliyaning taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi bilan uyg'unlashgan holda amal qiladi. Moliya nazorati milliy daromad yaratiladigan moddiy ishlab chiqarish sohasini va nomoddiy ishlab chiqarish sohasini qamrab oladi. Moliya nazoratining maqsadi moddiy, mehnat va moliya resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish hamda xo'jasizlikning oldini olishdir. Moliya nazoratining asosiy vazifasi xo'jalik subyektlarining o'zaro hisob-kitoblari majburiyatlarini, qonunchilikdagi budjet tizimini va soliq xizmatlari oldidagi moliya majburiyatlarini bajarishga rioya etilishini ta'minlash hisoblanadi. Moliya nazoratining yuzaga chiqishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni boshlanishidan avval turli budjetlar va moliya dasturlarini ishlab chiqishda;
- shakllantirilgan turli pul mablag'lari fondlarini, ya'ni budjet, smeta va moliya rejalarini sarflanishida;
- pul mablag'lari fondlarining bajarilishini baholashda va faoliyat natijalarini yakuniy hisob-kitob qilishda <sup>[9]</sup>.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-son qarori hamda Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 18-apreldagi KQ-334-IV-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi "Ochiq Budjet" portali <https://openbudget.uz>
5. Финансы, денежное обращение и кредит: Учебник / Романовский В. М. и др.; под ред. Врублевский О.В. – М.: Юрайт-издат, 2006.
6. Alimov I.I. Moliya. –T.: TDIU. 2007.
7. Vahobov A.V., Malikov T.S. "Moliya" Darslik. – T.: "Sharq" nashriyoti, – 804 bet.
8. Malikov T.S., Haydarov N.H. "Davlat byujeti". O'quv qo'llanma. "IQTISOD-MOLIYa" – Toshkent. TMI. 2007-y.
9. Rashidov O.Yu., Toymuhamedov I.R., Alimov I.I., Tojiyev R.R. Pul, kredit va banklar: Darslik. –T.: TDIU, 2009. –439 b.
10. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari <https://www.imv.uz>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.